



**MUSIQA DARSLARIDA CHOLG'U ASBOBLARI  
VOSITASIDA BOLALARINI IJODIY TAFAKKURINI  
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

*Mamatxonova Asaloy Baxtiyorjon qizi  
Andijon shahar pedagogika kolleji musiqa fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa darslarida cholg'u asboblaridan foydalanish orqali bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslariga oid mulohazalar tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** Cholg'u asboblari, musiqa, dars, ijodiy tafakkur, tarbiya, ta'lif.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzlusiz ta'lif tizimini rivojlantirish va bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish borasida bir qator qaror va loyihalar amalga

oshirilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.2020 yildagi 141-son qarori asosida Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan chora tadbirlar ham ijod sohasini rivojlantirishning ahamiyatini yaqqol namoyon etmoqda.

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va ruxiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Umumita'lif maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilar nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Bunda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, «jonli» qilib ijro etib, o'quvchilar diqqat e'tiborini asarga jalb etadi, ularning nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, emotsional his -tuyg'ularga ham faol ta'sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirishni emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his -tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi.

O'qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir

qancha vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi; - musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash; - hayot va san'at o'rtafigi uzviy bog'liqlikni ifodalash; Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o'qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko'rishi, o'z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi



dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshirish yo'llarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonasi did bilan namunali jihozlangan bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko'rgazmali qurollar, pianino cholq'u asbobi va o'zbek xalq cholq'u asboblari bilan jixozlangan bo'lishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektalarini tuzib yangi texnologiyani qo'llab olib borilishi kerak. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotSIONAL tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Eng mashhur olimlar va san'at arboblari har tomonlama rivojlangan shaxslar bo'lishgan: A.Eynshteyn adabiyotga qiziqib, skripka chalgan; D.I.Mendeleev rassomlik nazariyasi bo'yicha maqolalarning muallifi bo'lgan, faoliyatning har tomonlamaligi va bir-biriga o'xshamagan qiziqishlarga ega boshqa buyuk namoyondalarda ham buni ko'rshimiz mumkin.

Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Xor bo'lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinlash.
4. Musiqaga mos harakatlami bajarish.
5. Bolalar cholq'u asboblarida jo 'r bo'lishdan iborat.

Xo'r bo'lib kuylash bolalarni musiqiy o'quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal -xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarni kuylashga qiziqtira olish ko'p jihatdan o'rganadigan har bir mashq yoki qo'shiq o'quvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog'liq.

Musiqa savodi. Musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqa asariarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo'llaniladi.

Musiqa tinglash Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarining asosiy omiii hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning harakteri, mazmuni ongli ravishda o'zlashtiriladi.

Musiqaga xos harakatlar bajarish. Boshlang'ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlangich sinf o'quvchilari, ovoz apparatlari noziq diqqat e'tibori tarqoq serxarakat, o'ynqaroq xotirasi, nutqi, toiiq rivojlanmagan boiganligi sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez - tez almashib turishi lozim.



Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg‘ulotdir, chunki bolalar cholg‘u asboblari jonli, tovushli o‘yinchoqlar sifatida har bir o‘quvchining qiziqtiradi. Bolalar cholg‘u asboblari birinchi navbatda o‘quvchilarda

ijrolik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o‘quv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati darslarida bolalar cholg‘u asboblaridan foydalanish yaxshi natijalar berish bilan birga o‘quvchilami darsga intiuvchanligini, qiziqishini, musiqiy uquvini oshiradi.

Musiqa darslarida qo‘llaniladigan bolalar cholg‘u asboblari ikki turga boiinadi.

Kuvchang va kuvchanff boimagan (shovqinli) cholg‘u asboblar kiradi.

1. Kuychang cholg‘u asboblarga metalafon va kselafon kiradi.
2. Kuychang bo‘lmagan cholg‘u asboblariga: doirachalar, oddiy cho‘p qoshiqlar,

kichik shiqildoqlar, barabanchalar, uchburchaq markassa va rumbalar kiradi.

Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish turli metodlar amalga oshiriladi:

1. Avval bolalar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo‘r boiish.
2. Musiqaga ritmik jo‘r boiishni aniq bajarganlar, bolalarcholg‘u asboblarida jo‘r boiadigan.
3. Keyinchalik esa, passiv bolalar, to‘g‘ri ijro etishga intilish maqsadida, ular ham jo‘r boiadilar.
4. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r boiish har gal, har xil cholg‘u asboblarida bajariladi.
5. Sinfni 2 guruxga boiib. 1 - gurux chapak va cholg‘uda, 2 - gurux esa ovoz usul

berish (bum - ba, baka - baka - bum) bilan amalga oshirish mumkin.

6. Bolalar choig‘u asboblarida ritmik jo‘r boiish grafik ko‘rsatilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Dars jarayoni bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o‘yinlar, o‘quvchilarni xotirasini mustaxkamlaydi, nutqini o‘stiradi, jismoniy sog‘lom bo‘lishiga ko‘maklashadi va ularni ruxlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi.

Demak, yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun, musiqa o‘qituvchisi ijodkor bo‘lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo‘lishi lozim. Chunki bolalar ijodiy tafakkurining rivojida bu mezonning ahamiyati katta.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.2020 yildagi 141-sonQarori.
2. Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. Oliy va o ‘rta maxsus o ‘quv yurtlari talabalari uchun o ‘quv qo‘llanma. Toshkent-2014.
3. Талабаларда ижодий фаоллик мотивацияси шаклланишининг психологик хусусиятлари. П.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси. - Т.: 2022 й. – Б. 22. \_\_